



HUDUDLARNING INVESTITSON JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVDA SINGAPUR TAJRIBASI

Abduqaxorov Bekzod
O'tkir o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch
doktoranti abdukaxaroff@mail.ru
ORCID: 0000-0001-5111-9042*

Annotatsiya. Ushbu tezisda innovatsion texnologiyalarning mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishdagi ahamiyati Singapur tajribasi asosida tahlil qilingan. Xususan, “Smart Nation” strategiyasi doirasida transport, sog‘liqni saqlash, energetika va shahar infratuzilmasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish natijalari yoritilgan. Shuningdek, Singapurda texnologik tadbirkorlik va startaplar ekotizimini rivojlantirish, venchur kapitalni jalb qilish hamda xalqaro korporatsiyalar uchun qulay biznes muhitini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati o‘rganilgan. Mamlakatning Global innovatsiyalar indeksi, “Business Ready” indeksi va startap ekotizimlari reytingidagi o‘rni asosida innovatsion rivojlanish hamda investitsion jozibadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan. Tadqiqot natijasida Singapur tajribasining O‘zbekiston hududlari investitsion jozibadorligini oshirishda qo‘llash mumkin bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion jozibadorlik, innovatsion iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, “Smart Nation”, aqlli shahar, startap ekotizimi, venchur kapital, texnologik tadbirkorlik, raqamli infratuzilma, xorijiy investitsiyalar.

Jahon iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilishda innovatsiyalarning ahamiyati shiddat bilan ortib borishi har bir mamlakatning o‘z innovatsion strategiyasini ishlab chiqishini talab etmoqda. Investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha eng muvaffaqiyatli mamlakatlardan biri Singapurdur. 2014-yilda Singapurni hayot sifatini yaxshilash, shahar infratuzilmasini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanadigan aqlli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan “Smart Nation” dasturining amalga oshirilishi mamlakatga investitsiyalar oqimini kengaytirgan. Transport tizimi sohasida ham internet narsalari (IoT), sun‘iy intellekt va raqamli platformalarga asoslangan yechimlarni qo‘llashga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Yer transporti boshqarmasining (LTA) MyTransport.SG mobil ilovasi fuqarolarga real vaqt rejimida jamoat transporti harakati, tirbandlik va avtoturargohlar mavjudligi haqida ma‘lumot beradi. Shu bilan bir qatorda

2023-yilda One-North, Sentosa va Tengah hududlarida haydovchisiz avtobuslar va taksilar uchun sinov marshrutlari ishga tushirilgan, mazkur loyihaga davlat

tomonidan 150 million Singapur dollari miqdorida investitsiya kiritilgan . Singapur yer transporti boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, har kuni aholining 65 foizidan ortiq qismi jamoat transporti qulay va samaradorligi sababli ulardan foydalanadi.

Sog'liqni saqlash sohasida National Electronic Health Record (NEHR) loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha bemorlar haqidagi asosiy tibbiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yagona raqamli ma'lumotlar bazasi. 2023-yil holatiga ko'ra, davlat va xususiy tibbiyot muassasalarining 95 foizdan ortig'i ushbu tizimga ulangan va ma'lumotlar bazasining o'zi 6,8 milliondan ortiq fuqaro va rezidentlarni qamrab olgan.

Shuningdek, Smart Nation strategiyasi energiyani aqlli boshqarishga ham alohida e'tibor qaratadi. Advanced Metering Infrastructure (AMI) dasturi elektr energiyasi iste'moli ustidan shaffof nazoratni ta'minlovchi aqlli hisoblagichlarni o'rnatishni nazarda tutadi. Ma'lumot uchun 2022-yil oxiriga kelib 1,4 milliondan ortiq xonadon (uy-joy fondining qariyb 75 foizi) bunday qurilmalar bilan jihozlandi, bu esa o'rtacha energiya sarfini 8-12 foizga qisqartirdi .

Ushbu o'zgarishlar natijasida Singapur xalqaro reytinglarda doimiy ravishda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Global innovatsiyalar indeksi (Global Innovation Index) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat texnologik tayyorgarlik bo'yicha 2023-yil holatiga 5-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024-yilda 4-o'ringa ko'tarilgan , Jahon banki guruhining "Business ready" (B-ready) indeksi ma'lumotlariga ko'ra, biznes boshlash qulayligi va aholiga xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha 2-o'rinni egallagan. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Global innovatsiyalar indeksi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda 100 ballik shkalada 24,7 ball bilan 83-o'rinni egallagan. "Business ready" (B-ready) indeksi ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan.

Singapurning investitsion jozibadorligini oshirishda texnologik tadbirkorlikning dinamik rivojlanayotgan ekotizimi va venchur kapital qo'yilmalarining kirib kelishi ham alohida ahamiyatga ega. Hukumatning maqsadli siyosati, xususan yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, Smart Nation strategiyasi tufayli mamlakat texnologik kompaniyalar, startaplar va xalqaro korporatsiyalar uchun qulay biznes muhiti yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Bugungi kunda, Singapurda 4000 dan ortiq startap loyihalari, jumladan

400 ga yaqin fintech sohasidagi startap loyihalari ro'yxatdan o'tkazilgan . Economic Development Board (EDB) va Enterprise Singapore kabi davlat organlari Startup SG Equity platformasi orqali soliq imtiyozlari, tadqiqot subsidiyalarini o'z ichiga olgan qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish paketlarini taqdim etib kelmoqda. Singapur bir qator transmilliy korporatsiyalar, jumladan Google, Meta, Amazon Web Services, Microsoft va ByteDance uchun mintaqaviy markaz bo'lib xizmat qiladi, ular Janubi-Sharqiy Osiyodagi R&D markazlarining asosiy qismini Singapurda jolashtirishgan .

Yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, Singapurning venchur kapital bozori yildan-yilga barqaror o'sish sur'atlariga erishmoqda. Xususan, 2022-yilda mamlakatga jalb qilingan investitsiyalar hajmi qariyb 11 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa Janubi-Sharqiy Osiyodagi barcha venchur kapitalning

40 foizdan ortiq qismini tashkil etgan.

Startup Genome Report 2023 ma'lumotlariga ko'ra, Singapur startap ekotizimlari yetuklik va texnologiya infratuzilmasi bo'yicha dunyoda 8-o'rinni egallagan.

Singapurning bunday yuqori natijalarga erishishida bir qator asosiy faktrlar mavjud bo'lib ular: innovatsion iqtisodiy siyosat, raqamli texnologiyalarning rivojlanganligi, investorlar uchun huquqiy himoyaning yuqori darajada ta'minlanganligi hamda xalqaro ochiqlik va shaffoflik.

Xulosa. Shunday qilib, Singapur tajribasi mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishda innovatsiyalar, raqamli infratuzilma va samarali davlat boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. "Smart Nation" strategiyasi doirasida transport, sog'liqni saqlash va energetika tizimlariga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirib, investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirgan. Startaplarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ventchur moliyalashtirishni rivojlantirish va investorlar huquqlarini himoya qilish esa xorijiy investitsiyalar oqimining kengayishiga xizmat qilgan. Ushbu tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda hududlarni raqamlashtirish, innovatsion loyihalarni rag'batlantirish va startap ekotizimini rivojlantirish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.